




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

©'z.KTI

№1 – 2025 (2) ISSN: 3060-5024



KRIMINOLOGIK FAOLIYAT

ILMIY-AMALIY JURNAL

№1 / 2025 (2)

ISSN: 3060-5024

MUASSIS: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

Tahrir hay'ati raisi

Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich
Institut boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori

Tahrir hay'ati a'zolari

Niyazmetov Ikrom Masharipovich
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
mas'ul xodimi, tahrir hay'ati raisi o'rinbosari

Sharafutdinov Alisher Ozodovich
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
yurist, dotsent

Jalolov Baxtiyor Odilovich
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan
yurist

Ismailov Isamiddin
yuridik fanlar doktori, professor

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Otajonov Abrorjon Anvarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rajabov Baxtiyor Almaxmatovich
yuridik fanlar doktori, professor

Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich
yuridik fanlar doktori, professor

Safarov Djahongir Ismoilovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Ganiyev Sherzod Alisherovich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Ollamov Yarash Yo'ldoshevich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Azim Shuhrat Obid o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Bazarov Farrux Abdugafurovich
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Oripov Sobirzoda Sobir o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Sirliyev Baxtiyor Nazarovich
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
professor

Yernazarov Solijon Yerkinovich
iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yarov Bekmamat Alikulovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, bosh
muharir

MUNDARIJA

KRIMINOLOGIK TAHLIL

Berdialiyev B.E.
Jamoat joylarida sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tahlili,
ularning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish 3

Bazarov F.A.
Ayollarga nisbatan sodir etilayotgan odam savdosi jinoyatlari: tahlil,
muammo va yechim 10

Умирзаков Б.А.
Некоторые взгляды на становление науки «криминология»
в качестве самостоятельной науки 16

Akramov X.F.
Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilishning
sotsiologik tahlili 22

A'loxonov M.A.
Zamonaviy kriminologiyada sun'iy intellektdan foydalanishning dolzarb
masalalari 29

Boytov'rayev F.M.
Davlat xaridlari sohasida «korruptsiyaga oid jinoyatlar» tushunchasining
kriminologik tahlili va nazariy yondashuvlar 36

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT KODEKSI 30 YOSHDA

Якубов А.С., Азим Шухрат
Социальная обусловленность уголовной ответственности
юридических лиц 42

Кабулов Р.
Современное состояние и перспективы совершенствования
действующего уголовного законодательства Республики
Узбекистан 49

Otajonov A.A.
Sun'iy intellekt va robotlashtirish: jinoyat qonunchiligini takomillashtirish
istiqbollari 57

KRIMINOLOGIK TADQIQOT

Adilkariyev X.T., Murodov A.Sh.
Notinch oilalar bilan manzilli profilaktika ishlarini tashkil etish
yo'nalishlari 71

Ikanov A.A.
Kriminologik profayling – kriminologiyaning yangi predmeti sifatida 77

Tahririyat manzili:
100187, Toshkent shahri
Mirzo Ulug'bek tumani
Buyuk ipak yo'li ko'chasi, 243
Tel.: +998 (71) 231-39-77
Elektron pochta: info@uzkti.uz
Website: kti.iiv.uz

© O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
Jurnal 2024-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669658 raqami bilan ro'yhatga
olingan.
O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2025-yil 12-
fevraldagi 367/5-son qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jumallar ro'yxatiga kiritilgan.



Muminova Gulnora Taxirovna

Katta muharrir, dizayn

Rasulova Dildora Abdumalikovna

Texnik dizayn

Original-maket O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to'liq yoki qisman ko'chirilib bosilganida «O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutining «Kriminologik faoliyat» ilmiy-amaliy jurnali»dan olinganligi ko'rsatilishi shart.

Materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko'chirmalar, iqtisodiy statistik ma'lumotlar rostligi va aniqligi uchun muallif javob beradi.

Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozma taqriz qilinmaydi va qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi.

Bichimi 60x40 1/8.

Bosma tabag'i 9,0

Adadi 50 nusxa

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Tahririy-noshirlik markazida chop etilgan.

Bosishga ruxsat etildi 17.04.2025

Buyurtma № 25/17

MUNDARIJA

Nizametdinxodjayev U.R.

Zo'ravonlik jinoyatlari determinatsiyasi va ularni oldini olishning asosiy yo'nalishlari 81

Maxmudov D.R.

Kiberxavfsizlik jinoyatlarining oldini olish – davr talabi 89

Xasanov Sh.E.

O'g'rilik jinoyati uchun javobgarlik masalasi va ushbu turdagi jinoyatlarni oldini olishning o'ziga xos xususiyatlari 92

Davranov X.B.

Ichki ishlar organlarining korrupsiyaviy jinoyat sodir etgan xodimi (jinoyatchi shaxsi)ning kriminologik tavsifi 99

Maxmutova Yu.B.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklar profilaktikasining institutsional asoslari 104

ILMIY IZLANISHLAR

Kaxarova M.M.

Qadimgi Xitoyda jinoyat va jazo masalasi 112

Kudratov B.B.

Axborot tizimi (texnologiyalari)dan foydalanib sodir etiladigan firibgarlik jinoyati tushunchasi va tasnifi 118

Achilov A.T., Abduganiev U.C.

Проблемы незаконного изготовления, приобретения, хранения и других действий с наркотическими средствами, их аналогами или психотропными веществами с целью сбыта военнослужащими 123

Матчанов Р.А.

Эффективность средств самбо и рукопашного боя при боевой физической подготовке курсантов 129

Jumaniyozov N.G'.

Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan jinoyatchi shaxsining kriminologik tasnifi 133

KRIMINOLOGIYA FANI FIDOYLARI

Blinder B.A., Zakirova A.G. 138

Mirzajonov Q., Niyozova S.S. 139

ANJUMANLAR. TADBIRLAR. TAQDIMOTLAR

Международное сотрудничество

Визит в Уральский государственный юридический университет имени В.Ф. Яковлева (Екатеринбург, Россия) 140

Hamkorlik memorandumlarini imzolash marosimi 142

JAMOAT JOYLARIDA SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK TAHLILI, ULARNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Berdialiye Baxtiyor Erkinovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada jamoat joylarida sodir etiladigan jinoyatlarning kriminologik tahlili va oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish hamda ularning asosiy yo'nalishlari o'rganilgan. Shuningdek, jamoat joylarida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga oid taklif va fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: jamoat joyi, jamoat tartibi, fuqarolar, jinoyat, huquqbuzarlik, qonun, javobgarlik, qasd, jamiyat, shaxs, jinoyat kodeksi, islohot, jamoatchilik, tan jarohati, zarar, harakat.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШАЕМЫХ В ОБЩЕСТВЕННЫХ МЕСТАХ, СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ИХ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ

Аннотация. В статье проведен криминологический анализ преступлений, совершаемых в общественных местах, изучены их основные направления и механизмы их предупреждения. Проанализированы и представлены предложения по совершенствованию механизмов предупреждения преступлений, которые могут совершаться в общественных местах, и преступлений против общественного порядка.

Ключевые слова: общественное место, общественный порядок, граждане, преступление, правонарушение, закон, ответственность, умысел, общество, личность, уголовный кодекс, реформа, публичный, травма, вред, действие.

CRIMINOLOGICAL ANALYSIS OF CRIMES COMMITTED IN PUBLIC PLACES, IMPROVEMENT OF MECHANISMS FOR THEIR PREVENTION

Abstract. The article provides a criminological analysis of crimes committed in public places, studies their main directions and mechanisms for their prevention. Suggestions for improving mechanisms for preventing crimes that can be committed in public places and crimes against public order are analyzed and presented.

Keywords: public place, public order, citizens, crime, offense, law, responsibility, intent, society, person, criminal code, reform, public, bodily injury, damage, action.

S o'nggi yillarda respublikamizda jamoat joylarida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirishga doir o'ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, fuqarolarni turli huquqbuzarliklar va jinoyatlardan muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining

“Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida” (2010), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi (2014) qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida” (2021), “Ichki ishlar

O'G'RILIK JINOYATI UCHUN JAVOBGARLIK MASALASI VA USHBU TURDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Xasanov Shuxrat Erkinbayevich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot
instituti bosh inspektori, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'g'rilik jinoyati va ushbu jinoyat uchun javobgarlik masalalari hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishiga sabab bo'layotgan asl omillar, shuningdek, ularni oldini olish bo'yicha samarali choralarni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'g'rilik, tergov qilish, javobgarlik, javobgarlikning muqarrarlighi, talon-toraj, mulk, mulkdor, jinoyat, jinoyatchilik, oldini olish, daxlsizlik.

ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРЕСТУПЛЕНИЕ КРАЖИ И ОСОБЕННОСТИ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ТАКИХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы кражи и ответственности за данное преступление, реальные факторы, способствующие совершению данного вида преступлений, а также вопросы разработки эффективных мер по их предупреждению.

Ключевые слова: кража, расследование, ответственность, неотвратимость ответственности, хищение, имущество, собственник, преступление, преступность, предупреждение, неприкосновенность.

THE ISSUE OF RESPONSIBILITY FOR THEFT AND THE SPECIFICS OF PREVENTING THIS TYPE OF CRIME

Abstract. This article examines the crime of theft and the issues of responsibility for this crime, as well as the real factors contributing to the commission of this type of crime, as well as the development of effective measures to prevent them.

Keywords: theft, investigation, responsibility, inevitability of responsibility, embezzlement, property, owner, crime, criminality, prevention, immunity.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar insonparvarlik prinsiplariga asoslangan holda shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, jinoyatlarni tez va to'liq ochish, jinoyatdan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan zararni qoplash, aybsiz insonlar javobgarlikka tortilmasligini ta'minlash sohasida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son, "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son farmonlari, shuningdek, "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin

hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarorining qabul qilinishi bu borada amalga oshirilayotgan ijobiy harakatlarning uzviy davomidir.

Biroq, amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarga qaramasdan, jinoyatlar soni va turi yildan yilga ortib, yangi turlari va usullari paydo bo'layotgani qonuniyligni ta'minlash, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etish, har tomonlama, to'liq va xolisona tergov qilish, javobgarlikning muqarrarlighi prinsipini ta'minlashda mavjud chora-tadbirlar yetarli emasligini ko'rsatmoqda.

Konstitutsiyamizning 65-moddasida "fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etishi, davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratishi, iste'molchilarning huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlanishi, barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi, xususiyl mulk daxlsizligi" 1 qat'iy belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar" deb nomlangan uchinchi bo'limi 10-bobida "O'zgalar mulkini talon-toraj qilish" uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu kodeksning 169-moddasida o'g'rilik tushunchasi berilgan bo'lib, o'g'rilik – o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilish sifatida belgilangan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, o'g'rilik jinoyati tarkibining obyektiv tomonini tavsiflab beradigan xususiylati, talon-torajlik jinoyatlarining boshqa shakllaridan farqlaydigan usuli hisoblanadi.

O'g'rilikda aybdor huquqqa xilof va yashirin ravishda, ya'ni boshqa shaxslardan yashirin holda mulkdorning xohish-irodasiga qarshi uning mulkini o'zlashtiradi va o'zining mulki sifatida tasarruf eta boshlaydi. Demak, o'g'rilik jinoyatining obyekt o'zganing mulki hisoblanadi.

Obyektiv tomondan o'g'rilik o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilishda ifodalanadi.

Talon-toraj qilishning yashirinligi deganda, jinoyat mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan yoxud ixtiyorida turgan shaxsga sezdirmasdan yoki mulkdor yoxud mol-mulkning talon-toraj qilinishidan manfaatdor bo'lmagan boshqa shaxslar yo'q vaqtida sodir etilishi tushuniladi.

Biroq, barcha holatlarda ham talon-toraj qilishni yashirin deb hisoblash uchun o'zaro bog'liq bo'lgan ikkita, ya'ni obyektiv va subyektiv mezonni tahlil qilish va baholash kerak bo'ladi.

Turli xil adabiyotlarda o'g'rilikning obyektiv tomoni zaruriyl belgisi sifatida yashirin ravishda talon-toraj qilish yuzasidan mualliflar aksariyat hollarda o'xshash fikr bildiradilar, ya'ni "talon-toraj qilishning yashirinligi deganda, jinoyat mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan yoxud ixtiyorida turgan shaxsga sezdirmasdan yoki mulkdor yoxud mol-mulkning talon-toraj qilinishidan manfaatdor bo'lmagan boshqa shaxslar yo'q vaqtida sodir etilishi tushuniladi" 3.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toraj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" 1999-yil 30-apreldagi 6-son qarorida "Jabrlanuvchining yoki boshqalarning yo'qligida yoki ular bor bo'lsa-da, ularga bildirmasdan o'zganing mol-mulkini yashirin talon-toraj qilish o'g'rilik hisoblanadi. Bordi-yu, jabrlanuvchi yoki boshqalar mol-mulkning olinayotganligini ko'rgan bo'lsa-da, lekin aybdor bildirmasdan harakat qilyapman deb o'ylagan bo'lsa, bunday qilmishni ham o'g'rilik deb tavsiflash lozim.

O'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilish bilan boshlangan, lekin jabrlanuvchi yoki boshqa shaxslar tomonidan sezib qolinganga qaramasdan aybdor tomonidan mulkka egalik qilish maqsadida ularning hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatib yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib qilingan harakatlar talonchilik deb, hujum qilib hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatganda yoxud shunday zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitganda esa bosqinchilik deb tavsiflanadi.

Zo'rlik ishlatish harakatlari aybdor tomonidan o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilishi tugagandan keyin qo'lga tushishdan qutulish maqsadida sodir etilgan bo'lsa, bunday harakat talonchilik yoki bosqinchilik deb qaralmaydi. Zo'rlik ishlatishning xususiyati va kelib chiqqan oqibatlariga qarab qilmishni o'g'irlik deb, boshqa jinoyatlarning belgilari bo'lganda jinoyatlar majmui bo'yicha tavsiflash lozim.

Aybdor tomonidan sodir etilayotgan voqeani tushunib yetish qobiliyatiga ega bo'lmagan (masalan, yoshi juda kichiklar, ruhiy jihatdan aqli norasolar, alkogoldan yoki narkotik moddalardan kuchli mastlik darajasida bo'lgan yoki uxlab qolgan) shaxslarning mulkini o'g'irlash o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilish deb tavsiflanishi kerak.

Jabrlanuvchining egnida bo'lgan kiyim-kechagi, qo'lidagi yoki bevosita yonida bo'lgan sumka, jomadon va boshqa anjomlaridan sodir etilgan yashirin talon-torajlik kissavurlik deb hisoblanadi va JKning 169-moddasi 2-qismi "a" bandi bilan tavsiflanadi.

Aybdor, jabrlanuvchi va boshqalar ko'z oldida o'zganing mulkini egallab olayotganligini va ular uning harakatlarining jinoiy xususiyatini tushunganligini anglaganda, o'zganing mulkini oshkora talon-toraj qilish talonchilik hisoblanadi deb ko'rsatilgan 4.

M.H.Rustambayevning fikricha, "barcha holatlarda talon-torajlikni yashirin deb hisoblash uchun, o'zaro bog'liq bo'lgan ikki, ya'ni obyektiv va subyektiv mezonni tahlil qilish va baholash lozim. Talon-toraj qilish usulini baholashning obyektiv mezoni shundan iboratki, mol-mulkni ochiqdan-ochiq talon-toraj qilish atrofdagi shaxslarning ko'zi oldida sodir etilgan bo'lsa-yu, atrofdagilar buni anglamasa (*masalan, aybdor birovning jomadonini egasi yo'qligidan foydalanib atrofdagilarning ko'zi oldida o'g'irlaydi, bunda jinoyatchi atrofdagilar u o'z jomadonini olib ketyapti deb o'ylashlariga ishonadi va hokazo*), bu holda qilmish o'zganing mulkini yashirin ravishda talon-toraj qilish deb hisoblanishi lozim.

Agar mulk egasi yoki mol-mulki ixtiyorida bo'lgan yoxud u ishonib topshirilgan shaxs talon-toraj qilish chog'ida hozir bo'lsa-yu, ammo talon-toraj sodir bo'layotganini tushunib yetmasa, shaxsning qilmishi (*masalan, mol-mulk egasi, qorovul uxlayotgan bo'ladi yoxud alkogol yoki narkotik mastlik holatida bo'lib, mol-mulk talon-toraj qilinayotganini anglab yetmaydi*) o'g'irlik deb kvalifikatsiya qilinadi.

Jinoyatni sodir etish obyektiv mezonlari bahosiga asoslanib, bu yerda talon-torajlikni yashirin deb topishning bir necha usullari mavjud. Ulardan birinchisi, amaliyotda ko'proq uchraydigan shakli, ya'ni umuman guvohlar mavjud bo'lmaganda, masalan, qo'riqlanmayotgan tovar-moddiy qimmatliklari ulgurji bazasi omboridan kechasi yoki egasi uyda bo'lmaganda o'g'rining qulfni buzib o'g'irlashidir.

Ikkinchisi, egasi yoki boshqa shaxslar bo'lsa ham, ularga bildirmasdan, yashirin ravishda mol-mulkni talon-toraj qilish, masalan, cho'ntak o'g'irliklari va hokazo. Bunday holatlarda o'g'irlik kamdan-kam holatlarda adashib mulkni oshkora talon-toraj qilish, talonchilik deb topilishi mumkin. Obyektiv mezonlarga asoslanib talon-toraj qilish, agar aybdor o'zganing mulkini mulk egasining bevosita ishtirokida, jabrlanuvchi sodir bo'layotgan jinoiy harakatlarni anglamagan holatda bo'lganida (*qattiq uyqu, hushdan ketish, qattiq mast holat va boshqalar*) sodir etilsa ham, yashirin deb hisoblanadi. Va, nihoyat, ushbu mezondan kelib chiqib, sudtergov amaliyotida aybdor tomonidan hamma-ning ko'z o'ngida mulkni qonuniy egasi sifatida olishi va boshqa shaxslar ushbu harakatlar noqonuniy xarakterga ega ekanligini anglamagani holda o'zganing mol-mulkini qasddan talon-toraj qilish yashirin ravishda deb hisoblanadi. Bunday holatlar, ko'pincha, temiryo'l vagonidan tovarlar tushirilayotganda aybdor yuk tushiruvchi sifatida kelib qandaydir buyum (quti, qop)ni oladi va o'zining foydasiga egallaydi yoki aybdor vokzal yoxud aeroportda qarovsiz qolgan buyumlarni uning egasi bo'lib kelib, olib ketadi".

O'g'irlik jinoyati aybdorning o'ziga bog'liq bo'lmagan holda oxiriga yetkazilmasligi (*masa-*

lan xonadon o'g'irligida uy egasining kelib qolishi) ham tugallangan o'g'irlik jinoyati hisoblanadi. Bunday holatlarda jinoyat kodeksining 25-moddasi (*jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish*)ni qo'llagan holda 169-moddada (*o'g'irlik*) bilan javobgarlik masalasi hal etilishi lozim bo'ladi.

Subyektiv tomondan o'g'irlik to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor olingan o'zganing mulkining nafaqat noqonuniyligini va qaytarib berilmasligini, balki o'z harakatlarining yashirin usullarini ham tushunib yetadi. Shu bilan birga, aybdor ushbu jinoyatning subyektiv tomonining zaruriy belgisi hisoblanuvchi g'arazli (*noqonuniy ravishda boylikka ega bo'lish*) maqsadini ham ko'zlaydi.

Jinoyat kodeksi 169-moddasining birinchi qismi bo'yicha jinoiy javobgarlik faqatgina tashkilotlardan, muassasalardan va korxonalardan xodim tomonidan o'g'irlangan mulkning umumiy qiymati eng kam oylik ish haqining o'ttiz baravaridan yuqori bo'lganda kelib chiqadi. Aks holda shaxs Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-moddasiga muvofiq, javobgarlikka tortiladi.

Agar o'g'irlangan mulkning umumiy qiymati Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-moddasi 3-qismida ko'rsatilgan miqdordan oshib ketmasa, necha marotaba mayda o'g'irlik sodir etilganligidan qat'i nazar, shaxs faqatgina ma'muriy javobgarlikka tortiladi. Shu bilan birga, agar o'g'irlik fuqarolarning mulkiga nisbatan amalga oshirilgan bo'lsa va o'g'irlangan mulkning umumiy summasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-moddasi 3-qismida ko'rsatilgan miqdordan oshib ketmasa ham qilmishni jinoyat sifatida Jinoyat kodeksining 169-moddasi birinchi qismi bo'yicha kvalifikatsiya qilish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 61-moddasida oz miqdorda talon-toraj qilganlik uchun javobgarlik quyidagicha belgilangan:

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavo-

zimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan oz miqdorda talon-toraj qilish –

bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa –

bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Umumiy foydalanishdagi elektr, issiqlik, gaz yoki vodoprovod tarmoqlariga tijorat maqsadlarida o'zboshimchalik bilan ulanish yoxud elektr energiyasini, tabiiy gazni, sovuq yoki issiq suvni hisobga olish asboblariga, shu jumladan ularning plombalariga qasddan shikast yetkazish yoxud hisobga olish asboblarining ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularga tashqaridan aralashish yo'li bilan elektr energiyasini, tabiiy gazni, sovuq yoki issiq suvni o'g'irlash tarzida sodir etilgan oz miqdorda talon-toraj qilish, –

bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Basharti talon-toraj qilingan mulkning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan oshmasa, bunday talon-torajlik oz miqdorda talon-toraj qilish deb hisoblanadi.

Ustav fondida davlat ulushi bo'lmagan korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini ularning xodimi tomonidan o'g'irlash, o'zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste'mol qilish yoki firibgarlik yo'li bilan sodir etilgan oz miqdorda talon-toraj qilish faqat mazkur korxona, muassasa, tashkilot rahbarining, mulkdorining yoki vakolatli boshqaruv organining arizasiga ko'ra javobgarlikka sabab bo'ladi.

Tijorat maqsadi deganda jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan muayyan faoliyatda foyda yoki daromad olishga qaratilgan maqsad tushuniladi 6.

Endi ushbu turdagi jinoyatlarning sodir etilishiga imkon berayotgan shart-sharoitlar, ularning asl omillarini aniqlash hamda barvaqt

oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga qisqacha to'xtalib o'tsak.

Tahlillarga ko'ra, o'g'rilik jinoyatlari har qachon ham umumiy jinoyatchilik orasida salmog'i yuqori bo'lgan jinoyat turlaridan biri hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2025-yil 3-yanvardagi** "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" **PQ-1-son qarori** ijrosini ta'minlash maqsadida, Toshkent viloyatining Ohangaron va Nurafshon shaharlari, Parkent, Ohangaron, Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq tumanlaridagi "qizil" toifaga kirgan mahallalarda huquqbuzarlikka sabab bo'layotgan asl omillar ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilganda, 2024 yilning 12 oyi davomida Toshkent viloyati hududida jami oldini olish mumkin bo'lgan **2 931 ta** jinoyat qayd qilingan bo'lsa, shundan **1 276 tasi** yoki **43,5 foizini** o'g'rilik jinoyatlari tashkil qilganligi ma'lum bo'ldi. Bu esa, mazkur jinoyatlarni ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq qilgan holda chuqur o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

O'g'rilik jinoyatlari sodir etilishiga imkon beradigan shart-sharoitlar, asosan, quyidagilardan iborat:

1. Aksariyat joylarda ko'p qavatli uylarning kirish podyezdlari eshiklarining qulfi mavjud emasligi, domofon o'rnatilmaganligi, xonadonlarning qo'riqlash pultiga topshirilmaganligi hamda xonadonlarga tashqaridan kirishning osonligi.

2. Avtomobil egalari tomonidan ochiq qoldirilishi yoki qulflash tizimining yaxshi emasligi, signalizatsiya o'rnatilmaganligi.

3. Mahallalar hududining jinoyat sodir etilishi mumkin bo'lgan joylariga kuzatuv kameralari to'liq o'rnatilmaganligi hamda ularning situatsion markazlariga integratsiya qilinmaganligi.

4. Fuqarolarning o'z mol-mulkleri saqlanishiga e'tiborsiz bo'lishi (*buyumlarni ko'chada qoldirish, sumkalar va kiyimlarni hamda hamyonlarni nazoratsiz qoldirish*), narsa va buyum-

larini, ayniqsa, uyali aloqa vositalarini unutib qoldirishlari.

5. Velosipedlar, bolalar aravachalarini ko'chalar va podyezdlarda qarovsiz qoldirish.

6. Tungi vaqtlarda aksariyat ko'chalarning yoritilmaganligi.

7. Mahallada uyushmagan aholi, xususan yoshlar, profilaktik hisobda turganlar, probatsiya hisobidagilar hamda muqaddam sudlangan shaxslar bilan ijtimoiy profilaktika doirasida yetarli profilaktik ishlar olib borilmasligi.

Shuningdek, o'rganishlar davomida ayrim shaxslar tomonidan o'g'rilik jinoyatlari sodir etilishiga olib keluvchi omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- bilimsizlik;
- ijtimoiy foydali mehnat qilish istagining yo'qligi;
- ma'naviy tarbiyasidagi kamchiliklar;
- surunkali ichkilikbozlik va giyohvandlikka hamda kayf-u safoga ruju qo'yish;
- huquqiy ong va huquqiy madaniyatining pastligi;
- oson yo'l bilan barcha narsaga erishishga bo'lgan ishtiyoqning yuqoriligi;
- ishsizlik va iqtisodiy yetishmovchilikning mavjudligi.

Ilmiy o'rganishlar davomida o'g'rilik jinoyatlarining **yoshlar tomonidan hamda o'rta ma'lumotli, vaqtincha ishsiz, jinoyat qilishga moyil bo'lgan shaxslar** tomonidan sodir etilganligi, mazkur yo'nalishlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar tomonidan Respublika darajasida tizimli ishlarni kuchaytirish zarurligidan dalolat bermoqda.

Professor A.S.To'xtaxo'jayev o'zining tadqiqotlarida o'g'rilik jinoyatlarini oldini olish uchun ijtimoiy muammolarga, xususan, ishsizlik, kambag'allik va oilaviy mushkulotlarga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, jinoyatchilikni oldini olishning samarali yo'li – **ijtimoiy yordam, ta'lim va tarbiyani kuchaytirishdan iborat. Yoshlar va aholi o'rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish va ijtimoiy**

barqarorlikni ta'minlash orqali jinoyatchilikni kamaytirish mumkin.

O'g'rilik jinoyatlarining oldini olishga salbiy ta'sir qilayotgan omillarni bartaraf etish bo'yicha takliflar:

1. Mahallalarga kirish-chiqish joylariga sifatli videokuzatuv kameralarini o'rnatish hamda profilaktika inspektori hamda situatsion monitoring markazlariga to'liq integratsiya qilish choralari ko'rish.

2. Adliya hamda boshqa tegishli idora-tashkilotlar xodimlarini jalb qilgan holda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan tizimli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish.

3. Mahallalarda ilgari sudlangan, ruhiy kasal, spirtli ichkilikka ruju qo'ygan, yakka yolg'izlar, profilaktik hisobda turuvchi, probatsiya nazoratidagi, uzoq muddatdagi va undan qaytgan shaxslar va boshqa ijtimoiy profilaktika obyektlari bilan muntazam ravishda **manzilli** profilaktik ishlarni olib borish.

4. Fuqarolar e'tiborini jalb qiladigan audio, video roliklar tayyorlash va korxona, idora-tashkilotlar, muassasalarda, ko'cha va jamoat-joylari, odamlar ko'p yig'iladigan joylarda (*rekлама asosida*) yoritib borish.

5. Mahalladagi ishsiz fuqarolarning aniq ro'yxatlarini shakllantirish, Bandlik va kambag'allikni qisqartirish hamda boshqa tegishli idora-tashkilotlar (*mahallada hokim yordamchisi*) bilan hamkorlikda ularning bandligini ta'minlash choralari ko'rish, bu borada sektor rahbarlari mas'uliyatini oshirish.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Obod va xavfsiz mahalla tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 30-noyabrdagi 801-son qarori talablari asosida har bir mahallada ijtimoiy profilaktika obyektlari ro'yxatlarini to'liq shakllantirib, "mahalla yettiligi" vakillariga xulosalar berib, sektorlar kesimida ijrosi nazoratini olib borish.

7. Xonadon o'g'riligi jinoyatlarining oldini olish bo'yicha xonadon egalari mas'uliyatini oshirgan holda Milliy gvardiya Qo'riqlash bo'limi

xodimlari bilan hamkorlikda xonadonlarni qo'riqlash pultiga ulatish choralari ko'rish.


8. Ko'p qavatli uylarning asosiy kirish eshiklarining (*podezdlar eshigi*) barchasiga domofon o'rnatish.

9. O'g'rilik jinoyatlarining ko'pchiligi jabrlanuvchilarning narsa va buyumlariga e'tiborsizligi, loqaydligi natijasida kelib chiqqanligi sababli, tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan kelishilgan holda aholining barcha qatlamlari orasida ularni ogohlikka chorlovchi ta'sirchan profilaktik tadbirlarni ishlab chiqish (*masalan: qarovsiz va beparvolik bilan saqlanayotgan narsa, buyum va boshqa mol-mulkarni "shartli ravishda" MFYga olib qo'yish orqali fuqarolarning mas'uliyatini oshirish tizimini ishlab chiqish*) va amalga oshirish.

10. Ko'p qavatli uylar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari va boshqa joylarga **"Diqqat hudud kamera nazorati ostida"**, **"Diqqat siz videokuzatuv ostidasiz"** kabi yozuvli ogohlantiruvchi belgilarni o'rnatish.


11. Yoshlar tomonidan sodir qilinayotgan jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ota-onalarning o'z farzandlarini to'g'ri yo'lga boshlashi va tarbiyalash borasidagi mas'uliyatini oshirish, ularga nisbatan ma'muriy ta'sirchan hamda profilaktik choralarni qo'llab borish.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan diyorimizda o'g'rilik jinoyatlari, umuman olganda, har qanday jinoyat sodir etilishiga favqulodda holat sifatida qarash lozim. Siz va bizning vazifamiz esa har qanday jinoyatga faol qarshi bo'lgan holda jinoyatlarning oldini olish, davlat va jamoat mulkini hamda o'z mulkimizni asrab-avaylashdan iborat ekanligini, har qanday jinoyat ham xalqimizga, davlatimizga salbiy ta'sir qilib, iqtisodiyotimizni ortga tortishini unutmasligimiz lozim.



Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. – 26-b.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. – 82–83-b.
3. Rustambayev M. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – 455-b.; Кабулов Р. Уголовно-правовые меры борьбы с хищениями: Теория и практика. Дис. д-ра юрид. наук. – Ташкент, 1997. – С. 27; Кадыров М. Уголовное право Республики Узбекистан. – Ташкент: Адолат, 1997. – С.174; O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. – Toshkent: Adolat, 1997. – 47-b.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida” 1999-yil 30-apreldagi 6-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. – 88–90-b.
6. M.Rustambayev. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021. – 455-b.



ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KORRUPSIYAVIY JINOYAT SODIR ETGAN XODIMI (JINOYATCHI SHAXSI)NING KRIMINOLOGIK TAVSIFI



Davranov Xusniddin Baxranovich

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
bosh yuriskonsulti

Annotatsiya. Ichki ishlar organlarining korrupsiyaviy jinoyat sodir etgan xodimi (jinoyatchi shaxsi)ning kriminologik tavsifi, tushunchasi, kriminolog olimlarning qarashlari, ichki ishlar organlaridagi korrupsiyaviy holatlar, ularning sabablari, korrupsiyaviy jinoyatlarning namoyon bo'lish shakllari haqida ilmiy fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, xodimlar, korrupsiya, kriminologiya, biofiziolgiya, demografiya, mansabdor shaxs, jinoyat, qonun, poraxo'rlilik.

КРИМИНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СОТРУДНИКА ПОЛИЦИИ (ПРЕСТУПНИКА), СОВЕРШИВШЕГО КОРРУПЦИОННОЕ ПРЕСТУПЛЕНИЕ

Аннотация. В статье представлены криминологическая характеристика и понятие сотрудника органов внутренних дел (преступника), совершающего коррупционное преступление, взгляды криминологов, научные мнения о коррупционных ситуациях в органах внутренних дел, их причинах, формах проявления коррупционных преступлений.

Ключевые слова: органы внутренних дел, сотрудники, коррупция, криминология, биофизиология, демография, чиновник, преступление, закон, взяточничество.

CRIMINOLOGICAL DESCRIPTION OF AN EMPLOYEE OF THE INTERNAL AFFAIRS BODIES (CRIMINAL) WHO COMMITS A CORRUPTION CRIME

Abstract. The article presents the criminological description of an employee of the internal affairs bodies (criminal) who commits a corruption crime, the concept, the views of criminologists, scientific opinions on corruption situations in the internal affairs bodies, their causes, and the forms of manifestation of corruption crimes.

Keywords: internal affairs bodies, employees, corruption, criminology, biophysiology, demography, official, crime, law, bribery.

Joriy yilning 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi, yig'ilishda korrupsiyaning oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, korrupsiyaga qarshi kurash – davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri, bu borada qonunchilikni takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini

kuchaytirish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali shaffoflikni ta'minlash zarur [1].

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, korrupsiya “jamiyat tanasidagi saraton”dir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida korrupsiyaviy jinoyatlarning 75 foizi tuman va mahallada maishiy korrupsiya shaklida sodir etilayotgani qayd etildi. Tuman va mahallalardagi mazkur vaziyat joylarda inson omili bilan bog'liq muammolar bartaraf etilayotgan bir